



**Mikrokredit tashkilotlarida audit tekshiruvlarini
o'tkazish tartibini takomillashtirish**

Muhammadiyev Faxriddin Sayfiddin o'g'li

Annotatsiya: Ushbu maqolada Ozbekiston kredit tizimidagi nobank moliya-kredit muassasalari haqida atroflicha bayon etilgan, hamda idarning faoliyatini kengaytirishga oid takliflar berilgan.

Kalit so'zlar: NMKM, NKT, mikromoliyalashtirish, lombardlar.

Kirish

Nobank moliya-kredit muassasalarining (NMKM) zarurligi quyidagi omillar bilan belgilanadi:

1. NMKM ba'zi bir bank operatsiyasini tijorat bankiga qaraganda tez va arzon bajara oladi.
2. Tijorat banklari ko'p hollarda kichik summadagi operatsiyalami, daromad miqdori kamligi sababli, amalga oshirishdan manfaatdor bo'tmaydi. NMKMning faoliyati esa aynan kichik summadagi bank operatsiyalariga qaratilgan bo'ladi.

NMKMlariga jahon tajribasida quyidagi tashkilotlar kiradi:

S kredit uyushmalari;

■S mikrokredit tashkilotlari;

•S lombardlar;

•S faktoring kompaniyalari;

•S kredit kooperativlari;

•S kredit agentliklari;

•S hisob-kitob muassasalari.



NMKM resurslarining dastlabki manbai boʻlib ustav kapitali hisoblanadi.

Kredit uyushmalari faqat oʻzining aʼzolaridan depozitlar qabul qilish huquqiga ega.

Demak, kredit uyushmalarida 2 ta resurs manbai mavjud:

- > ustav kapitali;
- > Aʼzolaridan qabul qilingan depozitlar.

Mikrokredit tashkilotlari depozitlar qabul qilish huquqiga ega emas. Ular ustav kapitali va moliyaviy grantlar hisobidan faoliyatini amalga oshiradilar.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili

Nobank kredit tashkilotlari deganda tor doirada ixtisoslashgan va alohida bank operatsiyalarini amalga oshirish huquqi boʻlgan kredit tashkiloti tushuniladi. Xalqaro amaliyotda nobank kredit tashkilotlari ga quyidagilar kiradi:

1. Kredit uyushmalari. Ular faqat oʻz-oʻzlariga depozit qabul qiladi va oʻz-oʻzlariga kredit beradi.
2. Mikrokredit tashkilotlari. Mikrokredit tashkilotlar aholining iqtisodiy-ijtimoiy jihatdan aktiv ammo kam taʼminlangan qatlamlariga kredit beradi. Ular depozit va omonatlar qabul qilish huquqiga ega emas.
3. Lombardlar oltin va tilla taqinchoqlarni garovga olish yoʻli bilan kredit beradi.
4. Lizing kompaniyalari;
5. Faktoring kompaniyalari.[1]

Tadqiqot metodologiyasi

Mazkur tadqiqotda statistik jadval va grafiklar, mantiqiy va taqqoslama tahlil, guruhlash usullari hamda mavzuga oid xorijiy, mahalliy olimlarning tadqiqot ishlari va rasmiy statistik internet saytlaridan keng foydalanilgan.

Tahlil va natijalar

Yaqin kunlarga Oʻzbekistonda ham mikrokredit tashkilotlar degan tushuncha



mavjud edi. Biroq, 2022-yil 17-martda qabul qilingan “ Nobank kredit tashkilotlari va mikromoliyalashtirish faoliyati to’g’risida”gi 765-son O’zbekiston Respublikasi qonuni qabul qilinishi bilan NMKM tushunchasi deyarli butkul o’zgardi.

Ushbu qonunning 3-moddasida nobank kredit tashkilotlariga quyidagicha ta’rif berilgan: “Banklar tomonidan amalga oshiriladigan ayrim moliyaviy operatsiyalarning ushbu qonunda ruxsat etilgan majmuini amalga oshiruvchi tashkilotlar nobank kredit tashkilotlaridir”. O’z navbatida bunday tashkilotlar ham 3ta guruhga bo’lindi :

- 1) Mikromoliya tashkilotlari - bu mikromoliyalashtirish faoliyatini amalga oshiruvchi va boshqa ruxsat etilgan xizmatlarni ko’rsatuvchi yuridik shaxs.
- 2) Lombardlar - bu yuridik yoki jismoniy shaxslarning o’z iste’moliga mo’ljallangan ko’char mol-mulkining (ashyoning) zaklat tarzidagi garovi asosida jismoniy shaxslarga qisqa muddatli mikroqarzlar berishga doir gaoliyatni amalga oshiruvchi yuridik shaxs.
- 3) Ipotekani qayta moliyalashtirish tashkiloti - bu moliyaviy mablag’larni jalb qilish va ulami ipoteka kreditlarini qayta moliyalashtirishga yo’naltirish bo’yicha faoliyatni amalga oshiruvchi yuridik shaxs.

Yuqorida sanalgan nobank kredit tashkilotlari o’zining turiga qarab maxsus belgilangan faoliyat turlari bilan shug’ullanadilar. “ Nobank kredit tashkilotlari va mikromoliyalashtirish faoliyati to’g’risida”gi qonunning 4-moddasiga asosan, mikromoliya tashkilotlari :

- > mikromoliyalashtirish faoliyatini amalga oshirishga;
- > to’lov agenti (subagent) yoki banklarning, sug’urta va boshqa moliya tashkilotlarining agenti vazifalarini amalga oshirishga;
- > o’zi atalyzi amalga oshirayotgan faoliyat bilan bog’liq maslahat va axborot xizmatlarini ko’rsatishga;
- > Tadbirkorlik sub’yektlariga mikrokredit summasidan oshadigan miqdorda kreditlar,



lizing, kafolatlar berishga, factoring xizmatlari va islomiy moliyalashtirishga oid xizmatlar ko'rsatishga haqli.

Lombardlar:

- > shaxsiy iste'molga mo'ljallangan ko'char mol-mulkning(ashyoning) zaklat tarzidagi garovi asosida jismoniy shaxslarga qisqa muddatli (bir yilgacha) mikroqarzlarni berishga;
- > Jismoniy shaxslardan shaxsiy iste'molga mo'ljallangan ko'char mol-mulkni (ashyoni) vaqtinchalik saqlash uchun qabul qilishga haqli.

Ipotekani qayta moliyalashtirish tashkilotlari:

- 1) quyidagilar orqali ipoteka kreditlarini qayta moliyalashtirishni amalga oshirishga :
 - a) banklar tomonidan berilgan yoki beriladigan ipoteka kreditlariga moliyaviy mablag'lar taqdim etishga;
 - b) banklar tomonidan berilgan ipoteka kreditlari bo'yicha talab qilish huquqini olishga;
 - c) pul mablag'larini banklar tomonidan chiqarilgan ipoteka qimmatli qog'ozlariga joylashtirishga;
- 2) ipoteka kreditlarini qayta moliyalashtirish bilan bog'liq maslahat va axborot xizmatlarini ko'rsatishga haqli.

Yuqoridagilardan tashqari nobank kredit tashkilotlari elektron shaklda xizmat ko'rsatishlari ham mumkin. Ular O'zbekiston Respublikasi davlat qimmatli qog'ozlarini, boshqa turdagi qimmatli qog'ozlarni (yuridik shaxslarning) sotib olishlari, hamda bo'sh pul mablag'larini bankka omonat (depozit)lar sifatida kiritishlari mumkin. Shunga qo'shimcha ravishda, ushbu qonunning 6- moddasiga muvofiq, nobank kredit tashkilotlari bir bir qancha faoliyat turlari bilan, ya'ni

- > bevosita ishlab chiqarishga;
- > sug'urta;
- > savdo faoliyatini amalga oshirishga;




> jismoniy va yuridik shaxslardan omonatlar(depozitlar) jalb etish;

kabi faoliyat turlari bilan shug'ullanishga haqli emas. Shuningdek, 17-moddasiga muvofiq, nobank kredit tashkilotlar uchun ustav fondining (ustav kapitalining) eng kam miqdori:


- S mikromoliya tashkilotlari uchun - 2 mlrd so'm;
- S lombardlar uchun - 500 mln. so'm;
- S ipotekani qayta moliyalashtirish tashkiloti uchun - 25 mlrd.so'mni tashkil etishi kerak.[2]

2022-yil may oyi holatiga ko'ra, O'zbekiston Respublikasi kredit tizimida 71ta mikrokredit tashkilotlari va 76ta lombard tashkilotlari mavjud bo'lib, mikrokredit tashkilotlarning aktivlari jami miqdori 1,5 trln so'mni, jami kapitalining miqdori 770 mlrd. so'mni, majburiyatlari esa 749 mlrd.so'mni tashkil etdi. Lombardlarning jami aktivlari miqdori 231 mlrd. so'mni, jami kapitali miqdorib206 mlrd. somni va jami majburiyatlari miqdori 24 mlrd. so'mni tashkil etdi.





1-rasm. O'zbekiston Respublikasi hududidagi lombard
tashkilotlar jami aktivlarining guruhlanishi.[3]



500 mlnso'mgacha 500mln so'mdan 1 mlrd.so'mdan 2 mlrd.so'mdan 1mlrd so'mgacha 2 mlrd so'mgacha yuqori

2-rasm. O'zbekiston Respublikasi hududidagi mikro kredit
tashkilotlar jami aktivlarining guruhlanishi.[3]

Xulosa va Takliflar

Umumiy olib qaraydigan bo'lsak, nobank kredit tashkilotlari banklarni qiziqitirmaydigan past, lekin son jihatdan ko'p daromadli aholining ehtiyojlarini o'z vaqtida tez va oson qondirishi uchun zarur.Shunday ekan, ularning faoliyatini kengaytirish maqsadida quyidagi takliflarni keltirmoqchimiz :

- > ularning ko'rsatadigan xizmatlari sonini oshirish;
- > faoliyatiga aralashuvlami keskin kamaytirish;
- > faoliyat jarayonida islomiy moliya mahsulotlariga urg'u berish.

Manba va foydalanilgan adabiyotlar:

1. "Pul va banklar" - O'quv qo'llanma / Sh.Z. Abdullayeva; - T.: "Iqtisod-Moliya", 2018. - 539b.



2. O'RQ-765 son. "Nobank kredit tashkilotlari va mikromoliyalashtirish faoliyati to'g'risida"gi qonun 3, 4, 6, 17-moddalar.
3. www.cbu.uz - O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankining rasmiy sahifasi ma'lumotlari.